

An'anaviy "spartakiada" musobaqasi

Talaba-yoshlarning qishki ta'til kunlarida professor - o'qituvchi va xodimlar o'rtasida "Sport - go'zallik ramzi" shiori ostida "Rektor kubogi" an'anaviy spartakiada sport musobaqalari qizg'in o'tkazilmoqda. Voleybol bo'yicha 24-25 dekabr kunlari ayollar o'rtasida bellashuv yuqori kayfiyatda murosasiz kechdi. Mazkur musobaqada jami 60 dan ortiq ayollar faol ishtirok etishdi. G'olib jamoalar quyidagicha aniqlandi.

1-o'rinni QXM fakulteti ayollar jamoasi,

2-o'rinni QSXET fakulteti ayollar jamoasi,

3-o'rinni GM fakulteti ayollar jamoasi egallashdi.



Stol tennisi bo'yicha 26 dekabr kuni ayollar o'rtasida musobaqa yuqori saviyada o'tkazildi. Mazkur musobaqada jami 30 dan ortiq ayollar faol ishtirok etishdi. G'olib jamoalar quyidagicha aniqlandi..

1-o'rinni QXM fakulteti jamoasidan Xatamqulova X.

2-o'rinni SXTEB fakulteti ayollar jamoasidan Karimova J.

3-o'rinni GM fakulteti ayollar jamoasi Mannonova F. ishg'ol etishdi.



Shashka bo'yicha 27 dekabr kuni ayollar o'rtasida bellashuv yuqori saviyada o'tkazildi. Mazkur musobaqada jami 30 dan ortiq ayollar faol qatnashdilar. G'olib jamoalar quyidagicha aniqlandi.

1-o'rinni YeRB fakulteti jamoasidan Xidoyatova M.

2-o'rinni QXM fakulteti ayollar jamoasidan Abduraxmonova Sh.

3-o'rinni YeRB fakulteti ayollar jamoasi Murodova D. egalladi.



Mini-futbol bo'yicha 24-27 dekabr kunlari erkaklar o'rtasida musobaqa murosasiz bo'lib utdi. Mazkur musobaqada jami 80 dan ortiq professor-o'qituvchi va xodimlar faol ishtirok etishdi. G'oliblar quyidagicha aniqlandi.

1-o'rinni Rektorat jamoasi,

2-o'rinni YeRB fakulteti terma jamoasi,

3-o'rinni GM fakulteti terma jamoasi ishg'ol etdi.



Erkaklar o'rtasida voleybol, stol-tennis, shaxmat-shashka musobaqalari davom etmoqda kuzatib boring.

"Jismoniy tarbiya va sport" kafedrasini mudiri M.Norqobilov axboroti

Institut matbuot xizmati rahbari R.Jumaniyozov